



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2024
2/1-сон



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2024 йил, 2/1-сон

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎЗР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:
и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир
ўринбосари:**
и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:
и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:
и.ф.д. Ф.А.Сафаров
катта ўқит. Ш.З.Ўразов

Техник муҳаррир:
и.ф.н., доц. А.Н.Холиқулов

Корректор:
PhD С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:
ассис. Х.Н.Очилова

1 йилда 4 мартаба
чоп этилади.

Ўзбекистон ҳудудида
тарқатилади.

Тахририят манзили:
140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(66)233-17-88

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Ўразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори в.б., DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти в.б., DSc

МОЛИЯ, ПУЛ МУОМАЛАСИ ВА КРЕДИТ	
Muhabbatxon Zayniddin qizi Berdaliyeva Zamonaviy sharoitda uy-joy qurilishini moliyalashtirish asoslari	151
To‘yli Gulmurodovich Ravshanov Misr mamlakatida turizm sohasini moliyalashtirish tizimining o‘ziga xos xususiyatlari	156
Наргиза Музафаровна Бабаева Суғурта компанияларининг инвестицион фаолиятини ривожлантиришнинг стратегик йўналишлари	162
БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ ВА АУДИТ	
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев, Мехрангиз Олимовна Мамаюнусова Оилавий корхоналар фаолиятига таъсир қилувчи омилар таҳлилини такомиллаштириш	167
Дилмурод Холмўминович Жўраев Акциядорлик жамиятларида ҳисоб сиёсатини тузишнинг ўзига хос хусусиятлари	174
Otabek Olimjonovich Sobirov Boshqaruv hisobining mohiyati va uni tashkil etishda budjetlashtirishning ahamiyati	178
To‘lqin Ismatulla o‘g‘li Yahyoyev Qurilish korxonalarida ko‘rsatilgan xizmatlardan olingan daromadlar tahlili.	182
Юлдуз Шарафитдиновна Рахманова Инвестициявий кўчмас мулкларнинг тасарруф этилиши натижалари ҳисобини такомиллаштириш	185
ТАЪЛИМ, КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА ПЕДАГОГИКА	
Nasiba Raxmatullayevna Ergasheva Qashqadaryo viloyati maktabgacha ta’lim tashkilotlarida outsorsing xizmatlaridan foydalanish mexanizmini takomillashtirish	190
ЭЪТИБОРГА МОЛИК МАСАЛАЛАР	
Саидахроп Гулямов, Мамаюнус Пардаев Ҳикмат ахтарганга ҳикматдир дунё	196
ИБРАТЛИ БИТИКЛАР	
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев Қуръон рақамларда	198

PhD dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent-2019

7. Jumaniyozov U.I. Davlat-xususiy sherikchiligi asosida uy-joy qurilishi sohasida korporativ boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish, PhD dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent-2018

8. Alimardonov I.M. O‘zbekistonda ipotekali kreditlashni rivojlantirish istiqbollari, Toshkent-2009

<p>М.Бердалиева</p> <p>Основы жилищного финансирования в современных условиях: финансирование жилищного строительства</p> <p>Аннотация: в данной статье рассмотрены современные тенденции и проблемы в сфере жилищного финансирования и направления совершенствования жилищного финансирования. В статье также анализируются методы финансирования, используемые в сфере финансирования жилищного строительства и финансирования строительства в разных странах.</p> <p>Ключевые слова: недвижимость, финансирование жилья, финансирование строительства, методы финансирования, источники финансирования, SPV, проектное финансирование, государственно-частное партнерство, долевое финансирование строительства.</p>	<p>M.Berdaliyeva</p> <p>Fundamentals of housing financing in modern conditions: financing housing construction</p> <p>Abstract: in this article, the current trends and problems in the field of housing financing and directions for improving housing financing are considered. The article also analyzes the methods of financing used in the field of housing supply financing and construction financing in different countries.</p> <p>Keywords: real estate, housing financing, construction financing, financing methods, financing sources, SPV, project financing, public-private partnership, construction equity financing.</p>
---	---

To‘yli Gulmurodovich Ravshanov – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta o‘qituvchisi

MISR MAMLAKATIDA TURIZM SOHASINI MOLİYALASHTIRISH TIZIMINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada Misrda turizmni barqaror rivojlantirish istiqbollari, turizm sohasiga ajratilayotgan imtiyozli kreditlar va turistik yig‘imlarni undirish masalalari o‘rganildi. Shuningdek, mamlakatimizda “Barqaror turizm-2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha ishlar o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: barqaror turizm, imtiyozli kreditlar, investitsiyalar, turistik yig‘im, marketing, jamg‘arma, turizm federatsiyalari.

Kirish. Misr turizm sohasi nafaqat Afrika davlatlari orasida balki dunyoda ham yetakchi mamlakatlaridan biri hisoblaniladi. Misr hukumati yildan-yilga ushbu tarmoqni diversifikatsiya qilish orqali mamlakatni turizm habiga aylashtirishni maqsad qilmoqdalar.

Bunda Yevropa mamlakatlaridan tashrif buyurayotgan turistlarning oqimi yanada ko‘paytirish, musulmon mamlakatlaridan tashrif buyurayotgan sayyohlarga qulayliklar yaratish maqsadida halol standartlariga javob beradigan mahsulot hamda xizmatlar ko‘rsatish hamda turizm tarmog‘ini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash ishlarini davom ettirish maqsad qilingan.

Misrda turizm sohasining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri ushbu mamlakatda faoliyat olib borayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari tarmoq rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etishi hisoblaniladi. Nodavlat notijorat tashkilotlari mamlakatning turizm sohasini rivojlantirish uchun bevosita amaliy yordam ko‘rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Iqtisodchi olim Tarek Muhammadning “Covid-19: Egyptian Government Financial Assistance Measures” nomli maqolasida Misr hukumati tomonidan uzoq va qisqa muddatlarda turizm sohasida faoliyat olib borayotgan tadbirkorlik subyektlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash borasida tizimli ishlarni amalga oshirishi hamda Misr Markaziy banki tomonidan “Turizm tashabbusi” loyihasi doirasida uzoq va qisqa muddatlarga past foizli qarzlarni berilishini ta’kidlab o‘tgan[1].

Shu bilan birga, Tomas Rixter va Xristain Staynerlar “Politics, Economics and Tourism Development in Egypt” nomli kitoblarida Misr mamlakatida so‘nggi uch dekadada turizm

sohasini sezilarli rivojlanganligi, turizm sohasidagi daromadlarning ortishi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning ko'payishiga xizmat qilganligini ta'kidlaganlar [2].

Misrlik olimlar Ala Abdesalam hamda Chehab Elbelehi “Covid-19” pandemiyasining turizm sohasiga dastlabki ta'siri” nomli maqolalarida pandemiyaning Misr turizm sanoatiga ta'siri, uning salbiy oqibatlari natijasida kutilayotgan iqtisodiy qiyinchiliklar, turizm va sayyohlik sanoatining zamonaviy tendensiyalari hamda ushbu murakkab vaziyatlarda turizm sohasida faoliyat olib borayotgan tadbirkorlik subyektlariga berilayotgan imtiyozli kreditlar haqida o'zlarining fikr va mulohazalarini keltirilgan [3].

Umuman olganda, Misrda turizm siyosati Misr turizm vazirligi tomonidan amalga oshirilishi, hududiy hamda milliy dasturlar ishlab chiqilishi, mamlakatda faoliyat olib borayotgan nodavlat, notijorat tashkilotlari vazirlikka ushbu siyosatni yuritishga yordam berishini ko'rishimiz mumkin hisoblaniladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot ishini bajarishda kuzatish, ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, monografik kuzatish usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Misr turizm vazirligi turizm siyosati hamda turizmni rivojlantirish uchun qoununchilik normalarini ishlab chiqish uchun mas'ul hisoblaniladi.

Vazirlik faoliyati asosan ikki qismga ajratiladi. Xususan:

- Turizmni rivojlantirish boshqarmasi (Tourism Development Authority) turizm sohasidagi loyihalar va investitsiya dasturlarining amalga oshiradi hamda infratuzilma loyihalarini rivojlantirishga va yerlarni amalga oshirishga yordam beradi;

- Misr turizm boshqarmasi (Egyptian Tourism Authority) mahalliy va kiruvchi turizm uchun mas'ul hisoblaniladi. U hududiy va xalqaro miqyosda turizm mahsulotlarini diversifikatsiya qilishni amalga oshiradi.

Misr turizm federatsiyasi (Egyptian Tourism Federation) beshta turizm sanoati assotsiatsiyalarni o'z ichiga qamrab oladi. “Mehmonxonalar” uyushmasi, “Sayohat agentliklari” uyushmasi, “Turistik muassasalar” palatasi, “Turistik tovarlar” palatasi hamda “Dayving va suv sporti” palatasi ushbu federatsiyaning a'zo hisoblaniladi.

Ushbu federatsiya Turizm vazirligi bilan hamkorlikda ishlagan holda turizm sohasida rejalashtirish, boshqarish va mazkur tarmoqda faoliyat olib borayotgan xodimlarning malakasini oshirishda faol ishtirok etib boradi.

Vazirlik samarali turizm siyosati uchun boshqa vazirlik va muassasalar bilan birgalikda ishlaydi. U turizm sohasini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish borasidagi muvofiqlashtirish ishlarini olib boradi va barcha manfaatdor tomonlar o'rtasidagi hamkorlikni yaxshilash ustida ishlaydi. Bu jarayonga ko'maklashish maqsadida vazirlik tomonidan davlat va xususiy sektor o'rtasidagi aloqani yengillashtirish maqsadida turizm sohasida markazsizlashtirish konsepsiyasi qabul qilingan hamda turizm faoliyatini boshqarish va rivojlantirish bo'yicha samarali tuzilmalar joriy etilgan holda investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha qonun va me'yoriy hujjatlar moslashtirib boradi. Bundan tashqari, Misrda mazkur sohani rivojlantirish va uning oldida turgan muammolarni bartaraf etish maqsadida, Turizm bo'yicha Oliy Kengash tashkil etildi. U o'n bitta vazirlik va Misr turizm federatsiyasi vakillarini o'z ichiga oladi va Prezident tomonidan boshqariladi.

Misr hukumati tomonidan turizm sohasini qo'llab-quvvatlash maqsadida, 67,0 mlrd. AQSh dollari miqdoridagi tashqi mablag'lar ajratilgan.

Ushbu mablag'lar quyidagi maqsadlarda ishlatilishi belgilab olindi. Xususan:

- Keyingi uch yilda global marketing ishlarini amalga oshirish maqsadida, yangi brend kompaniyasini boshlash;

- Turistik saytlarda interaktiv reklama qilish ishlarini tashkil qilish;

- jamoatchilik bilan aloqalarni yaxshilash va izlash tizimlarini optimallashtirish.

Ushbu yuqorida ko'rsatilib o'tilgan faoliyatlar Misr turizm federatsiyasi tomonidan amalga oshirilishi hamda Turizm vazirligi huzuridagi turizm jamg'armasi tomonidan moliyalashtirilishi belgilab berilgan.

Misr davlat Hisob palatasi (The Accountability State Authority) va boshqa tashqi hukumat

agentliklari ushbu mablag‘larning samarali ishlatilishi va shaffofligiga mas’ul hisoblaniladi.

Misrning milliy rivojlantirish strategiyasida turizm sohasi milliy sanoatning eng muhim tarmog‘i sifatida qaralgan hamda turizm sohasini qo‘llab-quvvatlash ekologik barqarorlikni ta’minlash vositasi sifatida bayon qilingan.

1-jadval

Raqobatdosh, barqaror va inkluziv turizm sanoatini rivojlantirish yo‘nalishlari ¹

Rivojlantirish yo‘nalishlari	Amalga oshirish mexanizmi
Infratuzilmalarni rivojlantirish	1. charter kompaniyalari, temir yo‘llar va boshqalarga cheklovlar joriy qilish.
Ishchi kuchi	1. malaka bo‘shliqlarini to‘ldirish; 2. malakali va maxsus sertifikatlarga ega instruktorlarni treninglarga jalb qilish; 3. texnik va kasbiy ta’lim hamda xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash.
Qonunchilik va litsenziyalash asoslari	1. yangi turizm qonunini ishlab chiqish jarayonlarini jadallashtirish.
Xavfsizlik hamda himoya	1. gigiyena, yo‘l harakati xavfsizligi, favqulodda vaziyatlar tizimlari, mehmonxona standartlari, jamoat xavfsizligi borasidagi tushunchalarni turistlarga yetkazish.
Marketing va targ‘ibot	1. brend hamda jamoa bilan aloqalar tizimi takomillashtirish.
Barqarorlik muammolari	1. energiya tejevchi vositalardan foydalanish; 2. quyosh va qayta tiklanadigan energiyalardan foydalanish; 3. suv iste’moli, bio xilma-xillik, qattiq/suyuq chiqindilar va uglerod chiqindilari sarfini kamaytirish.

Misr hukumati keyingi o‘n yillikda turizm sohasini iqtisodiyotning eng muhim tarmog‘iga aylantirishni rejalashtirmoqda. Ushbu maqsadlarga yetishish maqsadida Afrika qit‘asi hamda unga yaqin mamlakatlar bilan raqobat qilgan holda raqobatdosh, barqaror va inkluziv turizm sanoatini yo‘nalishlarini rivojlantirishni maqsad qilmoqda.

Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun avvalo turizmni yanada rivojlantirish maqsadida “Yangi Turizm” qonuni ishlab chiqishni rejalashtirgan. Mazkur qonunda mintaqada Misr malakatining turizm salohiyatini yanada oshirish maqsadida targ‘ibo ishlarini amalga oshirish, barqaror turizm yo‘nalishlarini ishlab chiqish, texnik va kasbiy ta’lim hamda xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash hamda xorijiy mamlakarlardan malakali va maxsus sertifikatlarga ega instruktorlarni treninglarga jalb qilishni rejalashtirmoqda.

Misr hukumati yuqorida keltirilgan maqsadlarni amalga oshirish uchun “Barqaror turizm - 2030” strategiyasini ishlab chiqdi. U qiymatni oshirish, yuqori va barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish, qashshoqlikni yumshatish, daromadlardagi nomutanosiblikni bartaraf etish, samarali ish o‘rinlarini yaratish va gender tengligini oshirishdan iborat vazifalarni amalga oshirishni o‘z ichiga olgan.

Ushbu strategiyadagi asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

- I. 20 million nafar xorijiy turistlarni jalb qilish;
- II. Turistlarning kunlik o‘rtacha xarajatlarini 50 foizgacha oshirish choralari ko‘rish;
- III. Misrning jahon turizmidagi ulushini 1,5 foizga oshirish;
- IV. Misrning Arab turizm bozoridagi ulushini 2 marotabaga oshirish;
- V. Turizm sohasidan keladigan daromadlarni 20,0 mln. AQSh dollariga yetkazish;

¹ OECD tourism trends and policies 2018, 331-332-betlar

VI. Turizm tarmog'iga 10,0 mln. AQSh dollari miqdoridagi to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish belgilangan.

Strategiya muhim islohotlar va investitsiyalar orqali muammolarni hal qilishga va belgilangan maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan. Mazkur tashabbuslarga quyidagilar kiradi:

1. Institutsional o'zgarish. Turizmni rivojlantirish agentligi va Turizm vazirligini bilan birgalikda litsenziyalar va ruxsatnomalarni olishning yagona markazini tashkil etish, mehmonxonalar, palatalar va vazirlikni bog'lovchi intranet tizimini rivojlantirish, vazir boshchiligida ekspertlardan iborat maslahat qo'mitasini tashkil etish.

2. Bog'lanish. Yangi bozorlar uchun “E-visa” tizimini tashkil etish va sayohat uchun yangi yo'llarni tashkil etgan tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash tizimi joriy qilish.

3. Marketing va targ'ibot. Strategik bozorlar uchun innovatsion va aqlli usullardan foydalangan holda, mahsulot va xizmatlarni taqdim etish, jumladan, 14 tilda yangi marketing veb-sayti, an'anaviy bozorlar va Xitoy va Hindiston bilan onlayn ishlash kampaniyalarini tashkil qilish, ijtimoiy tarmoqlarni yaxshiroq boshqarish, bloggerlar bilan ishlash, yangi madaniy turizm reklamasi va QQSni qaytarishning yangi tizimini ilgari surish.

Ushbu xatti-harakatlarni ana'naviy targ'ibot va marketing uslublari orqali amalga oshirish tafsiya qilindi.

4. Investitsiya. Turistlarning ehtiyojlari va xohishlariga javob beradigan turizm mahsulot va xizmatlarini diversifikatsiya qilish va rivojlantirish, yuqori sifatli xizmat ko'rsatish tajribasini amaliyotga jalb qilish hamda Misr va beshta ichki yo'nalish uchun kuchli joy va uslub hissini rivojlantirish.

5. Barqarorlik. Eko prinsiplarga asoslangan va yashil turizm birliklari, madaniy merosni saqlash, “Green Star Hotel” mehmonxona dasturlarini rivojlantirish va boshqarish va ushbu sektorda atrof-muhitga ehtiyotkorona bo'lish ko'nikmalarini oshirish.

6. Ishchi kuchi. Milliy malaka standartlari dasturini va kulinariya trening markazlarini qo'llab-quvvatlash, akkreditatsiya va sertifikatliyadan o'tgan turizm tashkilotlarining imkoniyatlarini oshirish.

Misr turizmga yondashuvda ijtimoiy inklyuziya tamoyillarini qo'llaydi. U Misr fuqarolari va jamoalarini ish bilan ta'minlash va daromad olish imkoniyatlarini taqdim etish, davlat dasturlariga ijobiy hissa qo'shish, hayot sifati va atrof-muhitning mukammalligini qo'llab-quvvatlash hamda jamoalar va jamiyatni rivojlantirish orqali asosiy benefitsiarlar sifatida qaraladi. Investitsiyalar sohada inson resurslarini rivojlantirish va salohiyatni oshirish uchun malaka oshirish va o'qitishni qamrab olishi lozim hisoblaniladi.

Misr Bosh vaziri tomonidan turizm sohasini qo'llab-quvvatlash maqsadida, ishlab chiqarish tarmoqlarini qo'llab-quvvatlash doirasida qo'shimcha 10,0 milliard Misr funti miqdorida moliyaviy mablag'lar ajratilishi hamda tarmoqning umumiy moliyalashtirish miqdori 160 milliard Misr funti yetkazilishi ma'lum qilingan.

Keyingi uch yilda turizm sohasidan kelayotgan yillik daromadlarni 10,0 mlrd. AQSh dollaridan yillik o'rtacha 10,0 mlrd. AQSh dollariga yetkazish reja qilinganligi ma'lum qilingan.

Pandemiya sababli kelib chiqqan salbiy oqibatlarni bartaraf etish hamda turizm sohasini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, 2022-yilda Misr hukumati tomonidan mamlakatdagi sayyohlik obyektlariga yangi to'lovlar kiritildi (2-jadval).

Yuqoridagi jadvaldan ham ko'rish mumkinki, Misr hukumati tomonidan 1-martdan Vazirlik huzuridagi turizm va antiqa buyumlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi uchun mehmonxonalar, sayyohlik inshootlari, restoranlar va bozorlar uchun yangi to'lovlar joriy qilindi. Turizm vazirligi ushbu qaror bilan mehmonxonalar va safari yaxtalari uchun 1% to'lov yoki 5 dan 50 yevrogacha bo'lgan to'lovlar mablag'larni jamg'armaga o'tkazish lozimligi belgilandi. Umuman olganda, turizm sohasida faoliyat olib borayotgan tadbirkorlik subyektlari o'zlari joylashdan hududning turistik salohiyatidan kelib chiqqan holda turistik yig'implar to'laydilar. Misol uchun, turistik imkoniyatlari yuqori bo'lgan hududlarda faoliyat olib borayotgan turoperatorlar yilliga 7 000 misr funti miqdoridagi turistik yig'implarni to'lasalar,

turistik imkoniyatlari yuqori bo‘lmagan hududlarda faoliyat yurituvchi tashkilotlar yilliga 3 000 misr funti miqdoridagi yig‘imlarni to‘lash majburiyatlari yulangan.

2-jadval

Vazirlik huzuridagi Turizm va antiqa buyumlar jamg‘armasiga qo‘shimcha to‘lovlar¹

t/r	Turistik obyektlar nomi	To‘lov miqdori (foizda)	To‘lov miqdori (misr funtida)
1.	Mehmonxonalar (bron qilishdan tushgan daromaddan)	1	5-50
2.	Turistik kompaniyalar (yillik)		3 000-7 000
3.	Avtobuslar, mikroavtobuslar hamda limuzinlar (yillik)		500-1 000
4.	Kafelar (yillik)		4 000
5.	Restoranlar (yillik)		5 000
6.	Bozorlar (hududidan kelib chiqqan holda, yiliga)		5 000-10 000

Vazirlik kelgusi yillarda ushbu sohani qo‘llab-quvvatlash maqsadida, 30 milliard dollar sarmoya kiritni rejalashtirgan. 2028-yilgacha har yili 30 million sayyohni jalb qilinishi prognoz qilinmoqda va keyingi o‘nlikda turizmdan keladigan daromadni har yili 30 milliard dollargacha oshirishni rejalashtirmoqda.

Turizm Misr uchun xorijiy valyuta va ish o‘rinlarining asosiy manbai bo‘lib, 2023/2022-moliya yilida 10,75 milliard dollar daromad olgan. Bu o‘tgan yilgi 4,86 milliard dollardan ko‘proq hisoblaniladi.

“Reuters” agentligi tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlariga ko‘ra, 2021/22-moliyaviy yilida 2 000 tadan ortiq arxeologik yodgorliklar va 41 muzey saqlab turish xarajatlari uchun budjetdan 3,2 milliard yevro miqdoridagi mablag‘lar ajratilgan.

“Turizm tashabbusi” loyihasi doirasida Misr Markaziy banki tomonidan turizm sohasida faoliyat olib borayotgan xususiy sektor vakillari uchun 50,0 mlrd. Misr funti miqdoridagi yillik 8 foizlik kreditlar ajratilgan.

Uzoq muddatli kreditlar

- **Benefitsiarlar:** Mavjud mehmonxonalar yoki turizm transporti parklari. Tashabbus subyektlarning ta’ sis shakli yoki mulkchilik tuzilmasi o‘rtasida farq qilmaydi.

- **Maqsadi:** Mavjud mehmonxonalar yoki turizm transport parklarini ta’ mirlash yoki rennovatsiya qilish ishlari uchun ajratiladi.

3-jadval

Uzoq muddatli kreditlar bo‘yicha shartlar va cheklovlar²

t/r	Shartlari	Ishlatilish maqsadlari
1.	Foydalanish muddati	15 yil
2.	Daromadidan foydalanish	Qarz oluvchi mavjud imkoniyatlarini to‘lash yoki oldindan to‘lash uchun ishlatilmasligi va ularning ruxsat etilgan maqsadlarida ishlatilishini nazarda tutilgan.
3.	Xorijiy mulk	Benefitsiarning aksiyadorlik tuzilmasi (shakli) bo‘yicha aniq cheklovlar qo‘llanilmaydi.

Yuqorida berilgan shartlarga ko‘ta, uzoq muddatli kreditlar asosan mamlakatda faoliyat

¹ <https://www.businesstodayegypt.com/Article/1/2024/Tourism-Ministry-raises-fees-to-boost-its-tourism-support-fund>

² Tarek O. Mohanna “COVID-19: Egyptian Government Financial Assistance Measures” maqolasi. 2020-y. may. 2-3-b.

olib borayotgan tadbirkorlik subyektlariga 15 yilgacha Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkalaridan kelib chiqqan holda 8 foizda ajratilishi belgilangan.

Bundan tashqari, ushbu kreditlar mulkchilik shaklidan qattiy nazar mavjud mehmonxonalar yoki turizm transport parklarini moliyalashtirish uchun ajratilishi belgilandi.

Qisqa muddatli kreditlar

- Benefitsiarlar:

1. mehmonxonalar va kurortlarni qurish va ulardan foydalanish bilan shug‘ullanadigan kompaniyalar;
2. sayohat agentliklari;
3. quruqlikdagi turizm transport kompaniyalari;
4. turistik hududlarda faoliyat olib borayotgan restoranlar hamda boshqa ko‘ngilochar biznes korxonalarini;
5. mahalliy aviatsiya tashkilotlari.

- Maqsadi: Umumiy korporativ xarajatlarni moliyalashtirish (ya’ni, ish haqi, yetkazib beruvchilar oldidagi mavjud majburiyatlar va boshqa texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlari).

4-jadval

Qisqa muddatli kreditlar bo‘yicha shartlar va cheklovlar¹

t/r	Shartlari	Ishlatilish maqsadlari
1.	Foydalanish muddati	2 yil
2.	Imtiyozli davr	Benefitsiarlar tegishli to‘lov sanasidan boshlab olti (6) oydan ko‘p bo‘lmagan foizli imtiyozli davrga ega bo‘ladilar.
3.	Daromaddan foydalanish	Qarz oluvchi mavjud imkoniyatlarini to‘lash yoki oldindan to‘lash uchun ishlatilmasligi va ularning ruxsat etilgan maqsadlarida ishlatilishini nazarda tutilgan.
4.	Xorijiy mulk	Benefitsiarning aksiyadorlik tuzilmasi (shakli) bo‘yicha aniq cheklovlar qo‘llanilmaydi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda Misrda turizm tarmog‘i qiymatni oshirish, yuqori va barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish, qashshoqlikni yumshatish, daromadlardagi nomutanosiblikni bartaraf etish, samarali ish o‘rinlarini yaratish va gender tengligini ta’minlashning eng asosiy vositasi sifatida qaralmoqda. Yuqoridan kelib chiqqan holda quyidagi mamlakatimizda ham ushbu taklif etiladi:

1. O‘zbekistonda ham turizm sohasining barqaror yo‘nalishlarini ishlab chiqish, texnik va kasbiy ta’lim hamda xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash uchun “Barqaror turizm - 2030” strategiyasini ishlab chiqish;
2. Global marketing ishlarini amalga oshirish maqsadida, yangi brend kompaniyasini boshlash hamda ularni samarali moliyalashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish;
3. Turizm sohasini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish borasidagi ishlarni muvofiqlashtirish, berilayotgan moliyaviy ko‘maklarning samarali ishlarini nazorat qilish uchun moliyaviy nazorat ishlarni tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Tarek O. Mohanna “COVID-19: Egyptian Government Financial Assistance Measures” in 2020. may. pp. 3-4
2. Thomas Richter and Christian Steiner “Politics, Economics and Tourism Development in Egypt” in 2008. pp. 939-959.
3. Alaa Abdelsalam and Chehab Elbelehy “The early impact of Covid-19 on tourism industry” in 2020. 1-2 p.
4. <https://www.businessstodayegypt.com>

¹ Tarek O. Mohanna “COVID-19: Egyptian Government Financial Assistance Measures” maqolasi. 2020-y. may. 3-4-b.

<p>Т.Равшанов</p> <p>Особенности системы финансирования туризма в Египте</p> <p>Аннотация: в данной статье изучены перспективы устойчивого развития туризма в Египте, льготные кредиты, выделяемые туристическому сектору, и взывание туристических сборов. Также изучены действия по реализации в стране стратегии «Устойчивый туризм-2030».</p> <p>Ключевые слова: устойчивый туризм, льготные кредиты, инвестиции, туристический налог, маркетинг, сбережения, федерации туризма.</p>	<p>T.Ravshanov</p> <p>Features of the tourism financing system in Egypt</p> <p>Abstract: this article examines the prospects for sustainable tourism development in Egypt, preferential loans allocated to the tourism sector and the collection of tourism taxes. Actions to implement the “Sustainable Tourism 2030” strategy in the country were also studied.</p> <p>Keywords: sustainable tourism, preferential loans, investments, tourist tax, marketing, savings, tourism federations.</p>
--	--

Наргиза Музафаровна Бабаева – ҚўқонДПИ доценти, иқтисодиёт фанлари доктори

СУҒУРТА КОМПАНИЯЛАРИНИНГ ИНВЕСТИЦИОН ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ СТРАТЕГИК ЙЎНАЛИШЛАРИ

<p>Аннотация: мазкур мақолада республикамизда суғурта компанияларини, мустақил молиявий институтлар сифатидаги инвестицион фаолиятини ривожлантиришнинг асосий муаммолари ва истиқболлари таҳлил қилинган. Суғурта компанияларининг замонавий иқтисодиёт шароитидаги роли, давлат ривожланишидаги ўрни ёритилган. Инвестиция фаолиятини амалда тартибга солишнинг камчиликлари кўрсатилган ва уларни баратараф этиш юзасидан таклифлар берилган.</p> <p>Калит сўзлар: молия, молиявий пул оқимлари, инвестиция, инвестиция сиёсати, суғурта резерви, инвестиция портфели, устав фонди.</p>
--

Кириш. Ўзбекистонда иқтисодий тараққиётни таъминлашда суғурта компанияларнинг аҳамиятини янада ошириш борасида муҳим устувор вазифалар ишлаб чиқилган. Хусусан, «мамлакатда макроиқтисодий барқарорликни янада мустаҳкамлаш ва юқори иқтисодий ўсиш суръатларини таъминлаш мақсадида суғурта ва бошқа молиявий хизматларнинг янги шакллари жорий қилиш, суғурта хизматларининг ҳажмини уларнинг янги турларини жорий қилиш ва сифатини ошириш ҳисобига кенгайтириш устувор вазифа сифатида белгиланган»¹.

Маълумки, суғурта компанияларининг фаолияти бошқа молия институтларининг фаолиятдан тубдан фарқ қилади. Буни шу билан изоҳлаш мумкинки, суғурта шартномалари одатда бир йил муддатга, ҳаётни суғурталаш соҳасида эса бир йилдан кўп бўлган муддатга тузилади. Суғурта шартномаси тузилган сана ва унинг тугаш муддатигача бўлган даврда суғурталанувчилар томонидан тўланган суғурта мукофотлари захирада сақланади. Йиллар давомида суғурта захираларида йирик миқдорда пул маблағларининг тўпланиши ва уларнинг вақтинча бўш туриши суғурта компанияларининг йирик институционал инвестор сифатидаги ролини кескин оширади.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Суғурта компаниялари фаолиятининг назарий-методологик асослари ва инвестицион фаолиятини такомиллаштиришнинг баъзи масалалари мамлакатимиз ва қатор хорижий тадқиқотчиларнинг илмий ишларида кўриб чиқилган. Жумладан, етакчи хорижий ва МДХ мамлакатлари олимларидан К.Пфайффер, Д.Бланд, Г.Чернова, Ю.Ахвледиани, А.Федорова, И.Балабанов, А.Балабанов,

¹Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.07.2018 й., 06/18/5483/1594-сон, 01.05.2021 й., 06/21/6217/0409-сон

ISSN 2091-5187

❧ “СЕРВИС” ❧

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

22.05.2024 йилда теришга берилди. 7.06.2024 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табоғи 15,76. Ҳисоб-нашриёт
табоғи 12,5. Адади 100 нусха. Буюртма № 0076А/24.

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.